Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 425-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271
MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekistonda aholi turmush darajasi holati va dinamikasini statistik tahlili.....277
ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O‘G‘LI
Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash (ABC) usuli asosida mahsulot tannarxini aniqlash.....284
KAMOLOVA NAZOKAT MALIK QIZI
To‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishda suv izi ko‘rsatkichlariga asoslangan yashil marketing vositalaridan foydalanish istiqbollari.....301
USMANOVA NASIBA YUNUSOVNA
O‘zbekiston korxonalarida raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini strategik boshqarish: muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari.....312
KUVNAKOV XAYDAR KASIMOVICH
O‘zbekistonda cho‘l va yarim cho‘l yaylovlari maydonlaridan samarali foydalanishda qorako‘lchilikning ahamiyati.....324
BERDIYOROV BAXTIYOR SODIQOVICH
Ekoturizm va uning O‘zbekiston turizm xizmatlari bozoridagi o‘rni.....330
GAO BING, ZHAO YI
Barriers and practice configurations of corporate green management: evidence from semi-structured interviews with operational managers.....338
YUSUPOV SAIDVALI SHUKRULLAYEVICH
To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uslubiyotini ekonometrik modellashtirish asosida takomillashtirish.....350
TAN HONGLIN, LI BING
Efficiency–resilience coupling and spatial spillovers in cross-border arid agglomerations: an analytical framework and testable propositions.....362
SAYFUTDINOV SHUXRATJON SULTONOVICH
Turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....375
BEGLAYEV UÇQUN XURRAMOVIÇ
Hududlar baliqçilik sohasiga xizmat körsatuvçi infratuzilma subyektlarining boşqaruv tizimi va ularning samaradorlikga ta’siri.....382
NIYOZMETOV DONIYOR REJABBAYEVICH
Raqamli texnologiyalar sharoitida ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘zgarishi.....395

TILOVMURODOV DOSTONBEK FURQAT O‘G‘LI
Aktiv turizm xizmatlarini shakllantirish va tijoratlashtirish yo‘llari.....405
TOSHTEMIR BOYMURODOVICH BERDIYEV
Mamlakatimiz bank tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....412
BOBOJANOV BAHROMBEK RUZIMOVICH, BABADJANOVA MALIKA RUZIMOVNA
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va agrobiznes samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari.....418
ABDULHAYEV SHOHZOD HUSNIDDIN O‘G‘LI
Xodimlar malakasini oshirishga kiritilgan investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini baholash (Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalari misolida).....425
SATTIKULOVA GAVHARNISO AXMADXANOVNA
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xitoy tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....433
MURODOVA NARGIZA O‘TKUROVNA
Turizmda dinamik narx belgilash va raqamli marketing samaradorligi.....441
TEMIROVA FERUZA SAGDULLAYEVNA
Raqamli iqtisodiyotda brendga sodiqlik: xulq-atvor va multikanal yondashuvlar.....450
HAYITOV JAMSHID XOLBOYEVICH, TURSUNOV QOSIMBEK NODIROVICH, TOG‘AYEV ABROR AKBAR O‘G‘LI
Xizmatlar sohasida moliyaviy innovatsiyalar va iqtisodiy samaradorlik.....458
HAYITOV JAMSHID XOLBOYEVICH, BOZOROV JOBIR SIROJIDDIN O‘G‘LI
Xizmatlar sohasida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlar.....468
BOLTAYEV NURALI SHIRAMATOVICH
Agrar oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlashning boshqarish jarayonini baholash.....476

XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISHGA KIRITILGAN INVESTITSIYALARNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI MISOLIDA)

ABDULHAYEV SHOHZOD HUSNIDDIN O‘G‘LI
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Tadbirkorlik va biznes oliy maktabi 1-kurs magistranti
E-mail: abdulhayevshohzod@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalarida xodimlar malakasini oshirishga kiritilgan investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini baholash usuli taklif etiladi. O‘qitish samarasini aniqlash uchun dastur ishtirokchilarining natijalari bir xil vazifalarni bajaradigan, dasturda qatnashmagan xodimlar natijalari bilan taqqoslanadi. Har ikki guruhda o‘qitishdan oldingi va keyingi davrlar bo‘yicha bir ish soatida bajarilgan buyurtmalar soni hamda tuzatish talab etgan buyurtmalar ulushining o‘zgarishi baholanadi. Moliyaviy samara qo‘shimcha buyurtmalardan olingan marjinal daromad va xatolarni tuzatish xarajatlaridagi tejam asosida hisoblanadi. Kurs to‘lovi va o‘qishga ajratilgan ish vaqtining qiymatini hisobga olish investitsiya rentabelligi va qoplanish muddatini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonaga malaka oshirish dasturlarini taqqoslash va xodimlarni rivojlantirish budjetini asoslashda yordam beradi.
Kalit so‘zlar: xodimlar malakasini oshirish, inson kapitaliga investitsiyalar, moliyaviy samaradorlik, mehnat unumdorligi, investitsiya rentabelligi, qoplanish muddati, xizmat ko‘rsatish korxonalari, Qashqadaryo viloyati.

Аннотация. В статье предложен метод оценки финансовой эффективности инвестиций в повышение квалификации сотрудников предприятий сферы услуг Кашкадарьинской области. Для оценки эффекта обучения результаты участников программы сопоставляются с результатами сотрудников, выполняющих аналогичные функции и не проходивших обучение. В обеих группах сравниваются изменения двух показателей до и после программы — числа заказов, выполненных за рабочий час, и доли заказов, потребовавших доработки. Финансовый эффект оценивается на основе маржинального дохода от дополнительных заказов и экономии затрат на исправление ошибок. Учёт платы за обучение и стоимости рабочего времени сотрудников позволяет рассчитать рентабельность инвестиций и срок их окупаемости. Эти показатели могут использоваться для сравнения программ повышения квалификации и обоснования бюджета на развитие персонала.
Ключевые слова: повышение квалификации персонала, инвестиции в человеческий капитал, финансовая эффективность, производительность труда, рентабельность инвестиций, срок окупаемости, предприятия сферы услуг, Кашкадарьинская область.

Abstract. This article proposes a method for assessing the financial returns on employee training in service enterprises in Uzbekistan’s Kashkadarya region. The method compares employees who participate in training with colleagues who perform similar duties and do not attend the program. It tracks changes in two measures before and after training in both groups: orders completed per working hour and the share of orders requiring rework. Financial benefits are estimated from the contribution margin on additional orders and savings from reduced rework. These benefits are weighed against course fees and the cost of employee time spent in training to estimate the return on investment and the payback period. Managers can use these measures to compare training programs and allocate staff development budgets.
Keywords: employee training, investment in human capital, financial returns, labor productivity, return on investment, payback period, service enterprises, Kashkadarya region.

KIRISH

Xizmat ko‘rsatish korxonasida xodim malakasining iqtisodiy qiymati buyurtmani bajarish vaqti, xizmat sifati va mijozning takroriy murojaatiga

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

sarflanadigan xarajatlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, texnik xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassis malaka oshirgach, nosozlikni birinchi tashrifdayoq bartaraf eta olsa, korxona qayta tashrif uchun sarflanadigan vaqt va transport xarajatini tejaydi. Bo‘shagan ish vaqtida yana bir buyurtma bajarilsa, qo‘shimcha daromad ham shakllanadi. Shu sababli malaka oshirish dasturining moliyaviy samarasini baholashda xarajatlar tejami va qo‘shimcha buyurtmalardan olinadigan daromadni alohida hisoblash muhim. Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalari uchun amaliy masala - xodimlarni rivojlantirishga ajratilgan mablag‘ni qaysi o‘quv dasturiga yo‘naltirishni iqtisodiy jihatdan asoslashdir. Kurs narxi bir xil bo‘lgan ikki dastur korxona uchun turlicha natija berishi mumkin. Masalan, ulardan biri buyurtmani bajarish vaqtini qisqartirsa, ikkinchisi xatolar va mijozlar e’tirozlarini bartaraf etish xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Birinchi dasturning moliyaviy qaytimi bo‘shagan ish vaqtida qo‘shimcha buyurtma qabul qilish imkoniyatiga, ikkinchisiniki esa takroriy ishlarning tez-tez uchrashi va ularni bajarish qiymatiga bog‘liq. Demak, dastur tanlashda xodimning malakaga bo‘lgan ehtiyoji bilan birga korxonadagi qaysi jarayon ortiqcha vaqt yoki xarajat talab qilayotganini ham aniqlash zarur. O‘qitish samarasini aniqlashdagi asosiy uslubiy masala mehnat unumdorligidagi o‘zgarishga talabning mavsumiy tebranishi, buyurtmalar murakkabligi va ish yuklamasi ham ta’sir qilishidir. Shu bois o‘quv dasturida qatnashgan xodimlarning natijalarini o‘xshash vazifalarni bajaruvchi taqqoslash guruhi bilan bir xil davrlar bo‘yicha solishtirish maqsadga muvofiq. Bir ish soatida bajarilgan buyurtmalar sonini tuzatish talab qilgan buyurtmalar ulushi bilan birgalikda kuzatish xizmat tezligi va sifatidagi o‘zgarishlarni o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalarida xodimlar malakasini oshirishga kiritilgan investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini baholash usulini taklif etishdan iborat. Bunda qo‘shimcha buyurtmalardan olinadigan marjinal daromad va takroriy ishlar qisqarishidan tejalgan mablag‘ kurs to‘lovi hamda xodimning o‘qishga ajratgan ish vaqti qiymati bilan solishtiriladi. Shu asosda aniqlanadigan investitsiya rentabelligi va qoplanish muddati korxonaga qaysi dasturni kengaytirish, qaysi birining mazmunini qayta ko‘rib chiqish va kelgusi davr uchun o‘qitish budjetini qanday taqsimlash bo‘yicha qaror qabul qilishga asos beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida malaka oshirishga kiritilgan investitsiyaning moliyaviy qaytimini baholash uchun xodim ishida nima o‘zgargani va bu o‘zgarish korxonaga qancha daromad yoki tejam keltirganini aniqlash zarur. Sh. Raxmonov xizmat ko‘rsatish korxonalarida kasbiy mahorat va mijoz bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni xodim faoliyatini baholash bilan bog‘lashni taklif etadi [1]. Jahon bankining 2025-yilda e’lon qilingan O‘zbekiston bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda xodimlariga rasmiy o‘quv dasturlarini taklif etgan korxonalar ulushi 19,3 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich kichik korxonalarda 14,2 foizga, yirik korxonalarda esa 54,7 foizga

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

teng bo‘lgan [2]. Ushbu milliy tafovut Qashqadaryo viloyatida o‘qitish xarajatlari va natijalarini korxona hajmini hisobga olgan holda qiyoslash uchun asos beradi. J. Kim, H. Chang va B. S. Bell 159 ta tadqiqot natijalarini umumlashtirib, xodimlarni o‘qitish bilan tashkilot faoliyati natijalari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlikni aniqlagan. Bog‘liqlik kuchi qaysi natija o‘lchangani, o‘qitishdan keyin qancha vaqt o‘tgani va korxona qaysi tarmoqda faoliyat yuritishiga qarab farqlangan [3]. S. Schwarz va hammualliflar Buyuk Britaniyadagi korxonalar bo‘yicha 19 289 ta korxona-yil kuzatuvini tahlil qilib, rahbarlar va mutaxassislarning malakasini birgalikda oshirish mehnat unumdorligi bo‘yicha qo‘shimcha samara bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan [4]. Bu natijalardan kelib chiqib, xizmat korxonasida o‘quv dasturi boshlanishidan oldin ikki masalani belgilash maqsadga muvofiq. Birinchisi, qaysi ish jarayoni yaxshilanishi kutilayotganidir. Ikkinchisi, o‘zgarish qaysi muddatda va qanday ko‘rsatkich orqali o‘lchanishidir. Xizmat tezligidagi o‘zgarishni moliyaviy natijaga bog‘lash masalasi D. Fouarge va hammualliflarning moliyaviy xizmatlar kompaniyasida o‘tkazgan tadqiqotida yoritilgan. Call-markaz operatorlarini o‘qitishda sun’iy intellekt yordamida ularning suhbatlariga individual tavsiyalar berilgach, bitta qo‘ng‘iroqqa xizmat ko‘rsatish vaqti 10 foizga qisqargan. Mijozlar qoniqishida ham kichik ijobiy o‘zgarish kuzatilgan [5]. J. Sandvik va hammualliflar esa AQSHdagi savdo call-markazida ustoz biriktirish dasturining natijasini pulda baholagan. Mualliflar hisobiga ko‘ra, majburiy dasturda qatnashgan 127 nafar yangi xodim bo‘yicha olti oyda 536 ming AQSH dollari miqdorida qo‘shimcha tushum olingan, dastur xarajati esa 97 ming dollarni tashkil etgan [6]. Qashqadaryo xizmat korxonalarida ham tejalgan vaqtni moliyaviy natijaga aylantirish uchun shu vaqt hisobiga nechta qo‘shimcha buyurtma bajarilgani va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari chegirilgach, qancha daromad qolgani aniqlanishi lozim. Malaka oshirishning iqtisodiy ta’siri ish jarayonining boshqa ishtirokchilarida ham namoyon bo‘lishi mumkin. M.Espinosa va C. Stanton o‘tkazgan tajribada o‘qitilgan xodimlarning rahbardan yordam so‘rash holatlari kamaygan. Mualliflarning model hisob-kitobiga ko‘ra, dastur keltirgan umumiy nafning qariyb 45 foizi rahbarlar vaqtining boshqa vazifalar uchun bo‘shashi bilan bog‘liq bo‘lgan [7]. E. Manzoor va hammualliflarning 2026-yil 11-noyabrdagi ishchi maqolasi yana bir jihatni ochib beradi. Savdo mashqlarini sun’iy intellekt yordamida bajargan yangi xodimlar guruhida keyingi ikki hafta davomida bir ishtirokchiga to‘g‘ri kelgan jami qo‘ng‘iroqlar soni ko‘proq bo‘lgan. Mualliflar farqning katta qismini ayrim xodimlarning korxonada ko‘proq kun ishlagani bilan izohlagan [8]. Demak, jami buyurtmalar sonidagi o‘zgarishni talqin qilishda bir soatlik unumdorlik, ishlangan vaqt va xodimlarning ishda qolish muddatini alohida kuzatish kerak. Moliyaviy qaytim hisobida kuzatuv davri va xarajatlar tarkibi ham ahamiyatli. J. Konings va A. Putseys Belgiyaning Flandriya hududidagi kichik va o‘rta korxonalarni o‘rganib, ish joyida o‘qitish uchun subsidiya olgan korxonalarda to‘rt yillik davrda taqqoslash guruhiga nisbatan qo‘shilgan qiymat 5,68 foizga, mehnat unumdorligi esa 2,12 foizga oshganini baholagan [9]. Buyuk Britaniyaning ish beruvchilar malaka ehtiyojlari bo‘yicha 2026-yilda yangilangan hisobotida o‘qitish xarajatlari tarkibiga tashqi

kurslar uchun to‘lov, xodim va trenerning ish vaqti, o‘quv materiallari hamda dasturni tashkil etish xarajatlari kiritilgan [10]. Bu hisob usuli korxonaga tashqi kurs bilan ichki ustozlik dasturini bir xil xarajat mezonlari asosida taqqoslash imkonini beradi. Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalari uchun ochiq qolayotgan empirik savol - qaysi turdagi malaka oshirish dasturi o‘z xarajatini qancha muddatda qoplaydi? Buni aniqlash uchun o‘qitilgan xodimlar va o‘xshash vazifalarni bajaruvchi taqqoslash guruhida dasturdan oldingi hamda keyingi natijalarni kuzatish taklif etiladi. Bir ish soatida bajarilgan buyurtmalar soni unumdorlikni, qayta bajarishni talab qilgan buyurtmalar ulushi esa xizmat sifatini ifodalaydi. Qo‘shimcha buyurtmalardan olingan marjinal daromad va takroriy ishlar kamayishidan tejalgan mablag‘ni dasturning to‘liq xarajatlari bilan solishtirish orqali investitsiya rentabelligi va qoplanish muddatini baholash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalarida malaka oshirish dasturlarining samarasi farqlar farqi usuli bilan baholanadi [9]. Dastur ishtirokchilari shu korxonada bir xil vazifani bajaradigan, ish tajribasi va dastlabki unumdorligi yaqin bo‘lgan, kursda qatnashmagan xodimlar bilan taqqoslanadi. O‘quv ishtirokchilari ro‘yxati, ish vaqti tabellari va buyurtmalar reyestri asosida ikki ko‘rsatkich hisoblanadi. Bir ish soatida yakunlangan buyurtmalar soni mehnat unumdorligini, tuzatish talab qilgan buyurtmalarning jami buyurtmalardagi ulushi esa xizmat sifatini ifodalaydi. Avval har ikki guruhda o‘qitishgacha bo‘lgan tendensiyalarning o‘xshashligi tekshiriladi. So‘ng ishtirokchilar natijasidagi o‘zgarishdan taqqoslash guruhida ayni davrda kuzatilgan o‘zgarish ayiriladi. Moliyaviy naf (B) qo‘shimcha buyurtmalardan olingan marjinal daromad va takroriy ishlar kamayishidan amalda tejalgan xarajatlar yig‘indisi sifatida baholanadi. Marjinal daromadni aniqlashda qo‘shimcha tushumdan tegishli buyurtmalarni bajarish uchun sarflangan o‘zgaruvchan xarajatlar chegiriladi. Dastur xarajatlari (C) tarkibiga kurs to‘lovi, o‘quv materiallari hamda xodim va ichki trenerning mashg‘ulotga ajratgan ish vaqti qiymati kiritiladi [10].

Investitsiya rentabelligi $ROI = \frac{B-C}{C} \times 100\%$ formulasi bilan hisoblanadi. Qoplanish muddati o‘qitishdan keyingi jamlangan moliyaviy naf dastur xarajatlarini qoplagan birinchi oy bo‘yicha aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida xodimlar malakasini oshirishga kiritilgan investitsiyaning moliyaviy samarasi, avvalo, egallangan ko‘nikma korxonaning qaysi xarajatini kamaytirishi yoki qancha qo‘shimcha buyurtma bajarishga imkon berishiga bog‘liq. Viloyat statistika boshqarmasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda hududda 54 118,0 mlrd so‘mlik bozor xizmatlari ko‘rsatilgan. Shundan 19 981,2 mlrd so‘mi yashash va ovqatlanish, 10 173,1 mlrd so‘mi savdo

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ushbu ikki yo‘nalish viloyat xizmatlar bozorining 55,7 foizini tashkil etgan. Ularda malaka oshirish natijasini kuzatish uchun korxonaning kundalik hisobida mavjud bo‘lgan uchta ko‘rsatkich ayniqsa ahamiyatli. Bular bir ish soatida bajarilgan buyurtmalar soni, tuzatish talab qilgan buyurtmalar ulushi va buyurtmadan olinadigan marjinal daromaddir. Hududda bunday baholashni qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv dasturlari hujjatlashtirilgan. Masalan, 2024-yil 27-fevralda Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumida umumiy ovqatlanish xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha seminarda shahar restoranlari va ovqatlanish shoxobchalari boshqaruvchilari hamda oshpazlari qatnashgan. Ushbu turdagi dasturda oshpazning yangi ko‘nikmasi taomni qayta tayyorlashga sarflanadigan xomashyo miqdori orqali, boshqaruvchining ko‘nikmasi esa buyurtmani qabul qilishdan mijozga yetkazishgacha ketgan vaqt orqali baholanishi mumkin. Seminarning amaldagi moliyaviy qaytimini aniqlash uchun ishtirokchi korxonalarning o‘quvdan oldingi va keyingi buyurtmalari hamda xarajatlari haqidagi ma’lumotlar zarur. Quyidagi tahlilda rasmiy ish haqi ko‘rsatkichlari asosida kurs xarajatini qoplash uchun zarur natija hisoblandi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida bir xodimni 16 soat o‘qitishning hisobiy qiymati va olti oylik qoplanish chegarasi, ming so‘m

Iqtisodiy faoliyat turi	2025-yildagi o‘rtacha oylik ish haqi	O‘quvga ajratilgan 16 soat qiymati	Bir ishtirokchiga jami hisobiy xarajat	Olti oyda qoplash uchun zarur o‘rtacha oylik naf
Yashash va ovqatlanish	2 532,8	253,28	753,28	125,55
Savdo	3 963,1	396,31	896,31	149,39
Tashish va saqlash	7 599,6	759,96	1 259,96	209,99
Axborot va aloqa	9 609,2	960,92	1 460,92	243,49
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	13 201,8	1 320,18	1 820,18	303,36

Manba: muallif ishlanmasi.

Oylik ish haqi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining 2025-yil yanvar–dekabr ma’lumotlaridan olindi. Tarmoqlarni bir xil sharoitda qiyoslash uchun ish oyi 160 soat, kurs davomiyligi 16 soat, kurs, trener va materiallarning jami bevosita xarajati bir ishtirokchiga 500 ming so‘m deb qabul qilindi. Ish haqi kuzatuvi kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo‘jaligi korxonalaridan tashqari hisobot beruvchi tashkilotlarni qamrab oladi. Shu bois kichik xizmat korxonasida jadvaldagi hisobni uning haqiqiy ish haqi va ish vaqti asosida bajarish lozim. Hisob-kitobga ko‘ra, 16 soatlik o‘quv vaqtining qiymati yashash va ovqatlanish sohasida 253,28 ming so‘m, bank va unga aloqador moliyaviy faoliyat turlarida 1 320,18 ming so‘m bo‘lib, ular o‘rtasidagi nisbat 5,21 baravarni tashkil etadi. Bir xil bevosita kurs xarajati qo‘shilganda jami xarajatlar nisbati 2,42 baravarga teng bo‘ladi. Muhim farq xarajatlarning tarkibida ham kuzatiladi.

Tinglovchi vaqtining ulushi birinchi tarmoqda jami hisobiy xarajatning 33,6 foizini, ikkinchisida esa 72,5 foizini tashkil etadi. Demak, ish haqi yuqori bo‘lgan faoliyat turida o‘quv davomiyligi va mashg‘ulotlarni qaysi ish soatlarida o‘tkazish haqidagi qaror dasturning qoplanish chegarasiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

2-jadval

Umumiy ovqatlanish korxonasida bir xodimni o‘qitishning olti oylik moliyaviy natijasi bo‘yicha shartli ssenariylar

Oyiga qo‘shimcha buyurtmalar, ta	Oylik iqtisodiy naf, ming so‘m	Olti oylik jami naf, ming so‘m	Olti oylik sof samara, ming so‘m	Investitsiya rentabelligi (ROI), %	Qoplanish muddati
6	90,0	540,0	−213,28	−28,31	Olti oydan ortiq
10	130,0	780,0	+26,72	+3,55	6-oy
14	170,0	1 020,0	+266,72	+35,41	5-oy

Manba: muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

Boshlang‘ich xarajat bir xodimga 753,28 ming so‘m deb olindi. Har bir qo‘shimcha buyurtmaning tushumidan uni bajarishga ketgan o‘zgaruvchan xarajatlar chegirilgach, 10 ming so‘m marjinal daromad qolishi faraz qilindi. Avvalgi buyurtmalarni qayta tayyorlash kamayishidan tejaladigan xomashyo qiymati oyiga 30 ming so‘m deb olindi. Jadvaldagi rentabellik olti oylik sof samaraning boshlang‘ich xarajatga nisbati orqali hisoblandi. Ssenariy hisobining asosiy natijasi shuki, o‘qitish xarajati 753,28 ming so‘m bo‘lganda, olti oylik xomashyo tejami uning 180 ming so‘mini qoplaydi. Qolgan 573,28 ming so‘m qo‘shimcha buyurtmalardan olinadigan marjinal daromad hisobidan qoplanishi kerak. Shunday qilib, bir xodim hisobiga olti oyda kamida 58 ta qo‘shimcha buyurtma bajarilishi talab etiladi. Agar sifat yaxshilanishi hisobiga kutilgan xomashyo tejami yuzaga kelmasa, ayni kursni qoplash chegarasi 76 ta buyurtmaga ko‘tariladi. Demak, qayta tayyorlangan taomlar hamda ular uchun sarflangan xomashyoni alohida hisobga olish dastur samaradorligi haqidagi qarorni o‘zgartirishi mumkin. O‘rtadagi ssenariyda oyiga 10 tadan, jami 60 ta qo‘shimcha buyurtma bajarilganda olti oylik sof samara 26,72 ming so‘mni, rentabellik esa 3,55 foizni tashkil etadi. Ushbu natija buyurtmaning marjinal daromadiga sezgir. Masalan, buyurtmalar soni va xomashyo tejami saqlangan holda bir buyurtmadan qoladigan marjinal daromad 10 ming so‘mdan 9 ming so‘mga tushsa, olti oylik jami naf 720 ming so‘mga teng bo‘ladi va dastur xarajatining 33,28 ming so‘mi qoplanmay qoladi. Binobarin, kursdan keyin sotuvlar ko‘payganini qayd etish bilan birga qo‘shimcha buyurtmalarning tannarxi va ulardan korxona ixtiyorida qolgan daromadni ham kuzatish zarur. O‘qitish ta’sirini amalda baholashda buyurtmalar oqimining mavsumiy o‘zgarishi ham hisobga olinadi. Masalan, bayram kunlarida restoran mijozlari ko‘payganda o‘qitilgan xodimlar bilan birga boshqa xodimlarning ham buyurtmalari ortishi mumkin. Shu sababli bir xil smenada, o‘xshash vazifada va teng ish vaqti

sharoitida ishlagan xodimlarning natijalarini taqqoslash muhim. Qashqadaryo xizmat korxonalari uchun moliyaviy bahoning amaliy mezoni - dastur hisobiga olingan qo‘shimcha marjinal daromad va hujjatlashtirilgan tejamning o‘qitishga sarflangan mablag‘ hamda ish vaqti qiymatini qaysi muddatda qoplashidir. Bu mezon xodimlar bo‘limining malaka oshirish natijalarini korxonaning moliyaviy hisobi bilan bevosita bog‘laydi.

XULOSA

Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalarida xodimlar malakasini oshirishga kiritilgan investitsiyaning moliyaviy samarasi ikki manba hisobidan shakllanadi. Birinchisi - o‘qitish natijasida bajarilgan qo‘shimcha buyurtmalardan olinadigan marjinal daromad, ikkinchisi - xizmat sifatining yaxshilanishi tufayli xatolarni tuzatish va ishni qayta bajarish xarajatlarining kamayishi. Dasturlarni qiyoslashda ushbu natijalarni kursning bevosita xarajatlari va xodimning o‘qishga ajratgan ish vaqti qiymati bilan solishtirish lozim. Umumiy ovqatlanish korxonasi uchun ishlab chiqilgan shartli ssenariyda bir xodimni o‘qitishning hisobiy qiymati 753,28 ming so‘mni tashkil etdi. Har bir qo‘shimcha buyurtmadan 10 ming so‘m marjinal daromad olinishi va oyiga 30 ming so‘mlik xomashyo tejalishi shartida kurs olti oyda kamida 58 ta qo‘shimcha buyurtma hisobiga qoplanadi. Xomashyo sarfi o‘zgarishsiz qolsa, qoplanish chegarasi 76 ta buyurtmaga ko‘tariladi. Ikki ssenariy o‘rtasidagi 18 ta buyurtmalik farq xizmat sifatidagi yaxshilanishni pulda baholash nima uchun muhimligini ko‘rsatadi. Korxona darajasida haqiqiy rentabellikni aniqlash uchun o‘quv dasturi ishtirokchilari va o‘xshash vazifani bajaruvchi taqqoslash guruhining kursdan oldingi hamda keyingi natijalarini bir xil davrlar bo‘yicha kuzatish maqsadga muvofiq. Buning uchun xodimlar bo‘limining o‘quv reyestrini ish vaqti tabeli, bajarilgan buyurtmalar va qayta ishlash xarajatlari hisobi bilan bog‘lash zarur. Shu asosda hisoblangan sof iqtisodiy samara va qoplanish muddati korxonaga qaysi o‘quv dasturini kengaytirish hamda malaka oshirish budjetini qaysi kasbiy ko‘nikmalarga yo‘naltirishni asoslash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] Raxmonov Sh. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida inson kapitalini samarali boshqarish yo‘llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2026. – 4-jild, 8-son. – B. 442–446. – DOI 10.5281/zenodo.21966831. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

[2] World Bank. Enterprise Surveys: Uzbekistan 2024 Country Profile. – Washington, DC, 2025. – 11-bet, “Workforce” jadvali. enterprisesurveys.org

[3] Kim J., Chang H., Bell B. S. Organizational-Level Training and Performance: A Meta-Analytic Investigation // Journal of Management. – 2026. – Vol. 52, No. 5. – P. 1772–1809. – DOI 10.1177/01492063251327588. journals.sagepub.com

[4] Schwarz S., Du J., Nduka U., Zhang L. The Impact of Staff and Manager Training on Firm Productivity: Differential and Interaction Effects // British

Journal of Industrial Relations. – 2026. – Vol. 64, No. 1. – P. 148–167. – DOI 10.1111/bjir.70020. onlinelibrary.wiley.com

[5] Fouarge D., Fregin M.-C., Janssen S., Levels M., Montizaan R., Özgül P., Rounding N., Stops M. How AI-Augmented Training Improves Worker Productivity. – IZA Discussion Paper No. 18224. – 2025-yil oktabr. IZA - Institute of Labor Economics

[6] Sandvik J., Saouma R., Seegert N., Stanton C. Should Human Capital Development Programs Be Mandatory or Voluntary? Evidence from a Field Experiment on Mentorship // Management Science. – 2026. – Vol. 72, No. 6. – P. 4610–4632. – DOI 10.1287/mnsc.2024.07524. Management Science

[7] Espinosa M., Stanton C. Training, Communications Patterns, and Spillovers inside Organizations // Journal of Political Economy. – 2026. – Vol. 134, No. 7. – P. 1933–1966. – DOI 10.1086/740219. journals.uchicago.edu

[8] Manzoor E., Sun H., Peng K., Kadiyali V. The Workforce Selection Effects of Training with AI: Evidence from a Field Experiment. – Ishchi maqola. – 2026-yil 11-noyabr. emaadmanzoor.com

[9] Konings J., Putseys A. The Impact of On-the-Job Training Subsidies on Firm-Level Outcomes: Evidence from Flemish SMEs // Small Business Economics. – 2026. – Vol. 66. – P. 977–1003. – DOI 10.1007/s11187-025-01117-z. Springer Nature Link

[10] IFF Research. Employer Skills Survey 2024: Full UK Research Report. – Department for Education, Skills England, 2025. – 2026-yil iyunida yangilangan nashr. – 7-11-jadval. assets.publishing.service.gov.uk

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy